

Samatova Oysha Egamqulovna

*Jizzax viloyati Zomin tumani 19-maktab maktab
ona tili va adabiyot fani oliy toifali o'qituvchisi
+998906437510*

USTOZLARGA ADOLAT

15 yillik stajga ega pedagogga
oliy toifalar umrbodga beriladi,dedi.
Qarorlar jarang-jarang qildi.
Ustozlar o'zida yo'q shod bo'ldi.
Og'zilarini ochib-ochib quvondi.
Quyoshga yelkalarini tutib-tutib quvondi.
Quvonganlar ko'p-ko'p bo'ldi.
Bularning quvonishi qarorchilarga-da yoqmadi.
Qarorlari beqaror-beqaror bo'ldi.
Qarorlari buqalamun-buqalamun bo'ldi.
O'qituvchida o'yinchoq bo'ldi.
Quvonganlarning og'zidagi og'zida qola berdi.
Dilidagi dilida qola berdi.
Hamma hayron-hayron bo'ldi.
Dili vayron-vayron bo'ldi.
Qarorchilarning to'pig'igada kelmadi.
-Endi milliy sertifikatdan 80 foiz olsang,
50 foiz ustama beramiz,dedi.
O'qituvchi zoti bolalardek quvondi.
Tunlari uxlamay-uxlamay o'qidi.
Bolalarigada qaramay-qaramay o'qidi.
Erlari o'qrayib-o'qrayib qo'ydi.
Ulargada qaramay-qaramay o'qidi.
Umid qilib-qilib o'qidi.
Sinov kuni keldi, sinovda o'qituvchining
bilimi sinalmadi, asablari sinaldi.
Katakchalar bilan asablarini sinadi.
Katakchalargada chidadi.
Tishini tishiga qo'yib-qo'yib chidadi.
Asablarini yana bir oy sinadi.
Javoblarni mo'ltirab-mo'ltirab kutdi.
Yuraklarini ushlab-ushlab kutdi.
Va nihoyat,javoblar chiqdi.
O'qituvchilar 80 foiznida uddaladi, B+ nida uddaladi.
Javoblar quvontirdi.
Qiynalganinida unutdi.

Og‘zilarini ochib-ochib quvondi.

Ko‘zlarida yosh-yosh quvondi.

Quvonganlar ko‘p-ko‘p bo‘ldi.

Bu-da qarorchilarga yoqmadi.

-Bunday bo‘lishi mumkin emas, dedi.

O‘z qasdiga qarorlarni to‘g‘rilamoqchi bo‘ldi.

Qarorlari beqaror-beqaror bo‘ldi.

Qarorlari poyintar-soyintar bo‘ldi.

Qarorlari entak-tentak bo‘ldi.

Ustozlarning hafsalasi pir-pir bo‘ldi.

Yuraklari dir-dir bo‘ldi.

Asablari chil-chil bo‘ldi.

Oxiri... Qarorlaringgayaaaam... dedi.

(Oysha ustozning dil daftaridan)

